

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIGA QISQA MUDDATLI GURUHLARDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH

Mahammadova Ozodaxon Sadriddin qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti maktabgacha
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qisqa muddatli guruhlar orqali 5-7yoshli bolalarni o'rta ta'lim maktablariga tayyorlashga qaratilgan. Qisqa muddatli guruhlar haftasiga bir necha marta har biri 2-3 soatdan tashkil etilib bolalarning yoshiga va individual xususiyatlariga mos ravishda tuziladi. Dars jarayonlari o'yin mashqlar suhbatlar va amaliy topshiriqlar olib boriladi. Bundan tashqari maqolada savodxonlikka tayyorgarlik, matematik fikrlarni rivojlantirish, nutq madaniyati, ijtimoiy va psixologik tayyorgarlik kabi tushunchalar yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Maktabga tayyorgarlik, savodxonlikka tayyorgarlik, matematik fikrlarni rivojlantirish, nutq madaniyati, ijtimoiy va psixologik tayyorgarlik, estetik va ijodiy rivojlantirish, ota-onalar bilan hamkorlik.

Kirish. Bolalar uchun maktabga tayyorgarlik-bu ularning ta'limdagi muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim bosqichlaridan biridir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quvchilari uchun qisqa muddatli guruhlarda tayyorlov dasturlari bolalarga nafaqat bilim, balki, ijtimoiy emotsional va psixologik ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini yaratadi. Ushbu jarayon bolalarni nafaqat o'qish va yozishga balki jamoada ishlash o'z fikrini ifodalash mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi ko'nikmalarga ham tayyoylaydi. Maktabga tayyorlashda bolalar o'zining yangi hayotga, yangi muhitga kirishini boshlaydi. Bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlarga ta'sir ko'rsatadigan muhim davr hisoblanadi.

Maktabga tayyorlash jarayonida ta'limni boshlashdan oldin bolalarning nutq mantiqiy fikrlash ijtimoiy va psixologik tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. Bolalarga ko'proq muhim bilimlar berilishining o'zi shaxsiy rivojlanishiga o'ziga bo'lgan ishonchining mustahkamlashiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Bunday guruhlarda tayyorgarlik ko'rsatishining maqsadi bolalarni nafaqat maktabning boshlang'ich sinfini muvaffaqiyatli o'tkazishga tayyorlash, balki ularni o'z-o'zini ifodalash qaror qabul qilish va muolajalarni hal qilish kabi hayotiy ko'nikmalar bilan taminlashdir. Bunday guruhlarda odatda 3oydan 6oygacha bo'lgan muddatda faoliyat yuritib 6- 7yoshli bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlashni maqsad qiladi.

Qisqa muddatli guruhlarining asosiy afzalligi shundaki bu jarayon aniq maqsad va metodikaga asoslangan bo'ladi. Darslar mazmunan boy bolalarning yosh

xususiyatlariga mos va zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslangan bo'ladi. Qisqa muddatli guruhlarining o'ziga xosligi odatda 3oydan 6oygacha faoliyat yuritadi. Darslar haftasiga 3-5marta har biri 2-3soatdan olib boriladi. O'quv dasturi maxsus metodika asosida ishlab chiqilgan bo'lib quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi. Bular: Savodxonlikka tayyorgarlik. Bolalar harflarni tanish tovushlar bilan ishlash bo'g'inlarga ajratish sodda so'z va gap tuzish ko'nikmalarni egallaydi.

Matematik fikrlashni rivojlantirish. Raqamlarni tanish sanash oddiy misollarni yechish shakllar bilan ishlash tafakkurni rivojlantirishga doir topshiriqlar bajariladi.

Nutq madaniyati bu to'g'ri talaffuz o'z fikrini erkin va aniq ifoda etish dialog qurish savollarga javob berish va hikoyalar tuzish ko'nikmalari rivojlanadi

Ijtimoiy va psixologik tayyorgarlik deganda guruhda ishlash navbat kutish muammolarni hal qilish, o'zini tutish madaniyati emotsiyalarni boshqarish o'rgatiladi.

Estetik va ijodiy rivojlantirish bu rasm chizish ranglarni ajratib ko'rsatish qog'oz bilan ishlash musiqa va raqs orqali estetik did va ijodkorlikni rivojlantirishga etibor qaratiladi.

Ota onalar bilan hamkorlik. Bolani maktabga faqat maktabgacha ta'lim tashkilotlari zimmasida emas balki ota onalar ham faol ishtirok etishi lozim. Buning uchun pedagoglar tomonidan ota onaga tavsiya beriladi, individual suhbatlar o'tkaziladi, o'quv jarayoni haqida muntazam ma'lumot beriladi, ota onalar bilan seminar va treninglar tashkil etiladi. Bazi qisqa muddatli guruhlarda muammolar kuzatiladi. Ular: bolalarning maktabga nisbatan psixologik tayyorgarligi yetishmasligi, ota onalarning ushbu jarayonga bo'lgan befarqligi, tajribali mutaxassislarning yetishmasligi, metodik vositalarning zamonaviy emasligi kabilar kiradi. Bunday holatlarning oldini olish uchun tizimli yondashuv pedagoglarni malaka oshirishi ota onalar bilan ko'proq ishlashi shuningdek texnologik vositalaridan keng foydalanish lozim. Qisqa muddatli guruhlarining yana bir muhim jihati bu guruhlar bir tomondan yosh oilalarga qulaylik tug'diradi yani ularga moliyaviy yengillik beradi. Eng muhimi esa bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovi oshib boshlang'ich sinflarda o'quvchilar orasidagi tavofudga barham beriladi. Yana muhim jihatlaridan biri maktabgacha ta'lim tashkilotlarigi bolalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha zarur didaktik o'yin va o'yinchoqlar bilan ta'minlanishi kichik kutubxonalarning tashkil etilishidir.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorining qabul qilinishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning qalbida ilm tarbiya sport bilan shug'ullanishga bo'lgan ilk tasavvurlarni shakllantiradigan ularning ma'naviy yetuk jismonan barkamol bo'lib ulg'ayishlariga mustahkam poydevor yaradigan shaxs kamolotida debocha vazifasini bajaradigan mumkin hujjat bo'lib xizmat qilishi Sog'lom ona va bola yili davlat dasturida maktabgacha ta'limni har tomonlama

takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgani tizimda faoliyat olib borayotgan barcha pedagog metodist tarbiyachilar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Dasturda Sog'lom bolani voyaga yetkazishda ta'lim tizimining ro'lini kuchaytirish maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini yanada rivojlantirish boshlang'ich ta'limning yuqori sifatini ta'minlab zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etgan holda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish tadbirlarini amalga oshirish vazifalarini belgilaydi.

O'yin maydonchalari tashkil etish maktabgacha ta'lim tashkilotlari hududini obodonlashtirish va atrofni o'rash BMTning vazifasi hisoblanadi. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bolalarni maktabga tayyorlash va har tomonlama kamolga yetkazish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Jumladan:

Bolalar maktabgacha ta'lim va boshqa tegishli tashkilotlar uchun sotib olinadigan jihozlar mebellarga talablar va standartlarni rivojlangan mamlakatlarda to'plangan ilg'or tajribani hisobga olgan holda tubdan qayta ko'rib chiqish eng avvalo jihozlarning ergonomikligi qo'llashga qulayligi va foydalanish uchun xavfsizligi uzoq muddat qo'llashga yaroqliligi zararsiz materiallardan tayyorlangani va energiya tejamkor samarali texnologiyalardan foydalanilganida e'tibor qaratish;

Bolalarda mantiqiy fikrlash hamda matorikani erta rivojlantirish maqsadida 2016-2018-yillarda 3000ta maktabgacha ta'lim tashkilotini ko'rgazmali qurollar didaktik materiallar jamlanmasi o'yin va sport faollik markazlari o'quv metodik materiallar va 50 nomdagi badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash;

Maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan 3-6yoshli bolalarni oilada maktabga tayyorlash maqsadida maktabgacha yoshdagi farzandlari bor 200 ming oilani 7 nomdagi ertak va she'rlar to'plami ota onalar uchun bolalarni maktabga tayyorlovchi qo'llanmalar bilan ta'minlash maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan bolalar uchun "Sog'lom ona va bola yili" davlat dasturida tashkil etilgan "Zumradoylar davrasi" to'garaklari mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha meto'dik qo'llanmalar bukletlar ishlab chiqish va nashr etish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar to'g'risida nizomlar.

1-BOB. Umumiy qoidalar.

1. Ushbu Nizom maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi maktabgacha yoshdagi bolalar qisqa muddatli guruhlar maqsadlari vazifalari va faoliyatini tashkil etish tartibi belgilaydi.

2. Qisqa muddatli guruhlar faoliyati maktabgacha ta'lim tashkilotlari ustavi bilan tartibga solinadi.

3. Qisqa muddatli guruhlar maktabgacha ta'lim tashkilotiga bormaydigan

bolalarning to'loqonli kamol topishini taminlash, ularni tengdoshlari va kattalar davrasida moslashtirish uchun mo'ljallangan.

4.Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan qisqa muddatli guruhlarda bolalarning bo'lishi uchun to'lov qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda amalga oshiriladi.

5. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan qisqa muddatli guruhlarda bolalarning bo'lishi uchun to'lov muassis tomonidan belgilanadigan narxlar va tariflar bo'yicha belgilanadi, bundan qonun hujjatlarida belgilangan hollar mustasno.

2-BOB. Qisqa muddatli guruhlar maqsadlari va vazifalari.

6.Qisqa muddatli guruhlar maqsadlari bolalarning maktabgacha ta'limga to'liq jalb etilishi va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bormaydigan bolalar maktabgacha ta'lim olishga teng imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlashdan iborat.

7.Qisqa muddatli guruhlarining asosiy vazifakari quyidagilardan iborat:

- bolaning jismoniy, aqliy va manaviy kamol topishini saqlash va mustahkamlash;
- bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, uning ijtimoiy tajriba orttirishini taminlash;

- bolani shakllantirishda, tarbiyalashda va o'qitishda oilaga har tomonlama yordam berish;

- bolalarning bilim orttirishini , ijtimoiy shaxsiy, badiiy estetik va jismoniy kamol topishini taminlash;

3-BOB. Qisqa muddatli guruhlar tashkil etish,ularga qabul qilish va ularni to'ldirish tartibi.

8.Qisqa muddatli guruhlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanilmaydigan xonalar bo'lganda tashkil etiladi.

9.Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qisqa muddatli guruhlariga bolalar ularning ota onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning arizasi va bola sog'lig'i holati terisidagi tibbiy xulosa asosida qabul qilinadi.

10.Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlariga bolalar quyidagilar asosida qabul qilinadi:

- bolaning qonuniy vakili arizasi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda vakolatli organ bergan yo'llanma;

- bola sog'lig'i holati to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma.

11.Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar o'z faoliyatini davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining buyrug'i asosida amalga oshiradi.

12.Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar o'z

faoliyatini bolaning qonuniy vakillari bilan shartnoma asosida amalga oshiradi.

13. Bitta xonada ko'pi bilan 3 ta qisqa muddatli guruh faoliyatini uchta smenada tashkil etishga yo'l qo'yiladi.

14. Qisqa muddatli guruhlar maktabgacha ta'lim tashkilotlariga javob beradigan xonalarida tashkil etiladi.

15. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlariga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi.

16. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarigi qisqa muddatli guruhlariga 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi.

17. Qisqa muddatli guruhlar ham bir xil yoshdagi, ham turli yoshdagi bolalar bilan to'ldirilishi mumkin.

18. Bolalarni qisqa muddatli guruhlardan chiqarib yuborish maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi va:

- bola qonuniy vakilining arizasi bo'yicha;

- tibbiy ko'rsatmalar bo'yicha;

- bola maktabgacha ta'lim tashkilotining to'liq kunli guruhiga joylashtirilganda amalga oshiriladi. Bu haqda qisqa muddatli guruhga boradigan bolaning qonuniy vakillari maktabgacha ta'lim tashkilotiga yo'llanma olgan kundan boshlab 14 kun ichida maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbarini xabardor qilishi kerak.

19. Qisqa muddatli guruhlarining ishlash tartibi maktabgacha ta'lim tashkilotining ustavida va bolaning qonuniy vakili bilan tuziladigan shartnomada belgilanadi.

20. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qisqa muddatli guruhlarining quyidagi turlari faoliyat ko'rsatishi mumkin:

- rivojlantirish guruhi;

- bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi;

- inklyuziv guruh;

- kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh.

Xulosa. Qisqa muddatli guruhlar orqali bolalarni maktabga tayyorlash- bu kelajakdagi o'quv muvaffaqiyatlarni ta'minlashga qaratilgan muhim jarayondir. Bu jarayon bolalar uchun nafaqat bilim balki ijtimoiy va emotsional tayyorgarlikni ham o'z ichiga oladi. Ta'lim tarbiya sohasida o'tkazilayotgan chuqur o'ylangan islohotlar, avvalo, ong va tafakkurdagi ijobiy o'zgarishlarga yo'l ochib pirovardida xalq madaniyati takomilida hal qiluvchi ahamiyat kasb Shunday qilib qisqa muddatli guruhlarini tashkil etish ularning metodikasini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalardan bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Djanpeisova G.E. Modern aspects of mathematics education of preschool children /Methodical aid. T.: TSPU named after Nizami, 2017. - 106 p. 14.
2. Kodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda diologik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. - Sariogoch 1998 yil.
3. Qodirova F.Sh. Toshpo‘latova , N. Kayumova , M. Azamova , Maktabgacha Pedagogika Toshkent 2019.
4. Xasanboeva , O. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. 2007-yil.
5. Xasanboeva O. umumiy tahriri ostida, Oila pedagogikasi G‘.-T.: Aloqachi, 2007. - 383 b.
6. Sodiqova Sh.A "Maktabgacha pedagogika". Tafakkur sarchashmalari "T.: 2013 y.